

# O'SIMLIKLER VA ATROF-MUHIT

## Mashg'ulotning maqsadi

📌 O'quvchilar o'simliklarning tabiatdagи аhamiyatini, ularning qanday muhitda o'sishini va atrof-muhit bilan bog'liqligini tushunadi. Ular o'simliklarning havoni tozalash, tuproqni himoya qilish va hayvonlar uchun ozuqa manbai ekanligini o'rganadi.

## Mashg'ulot davomiyligi

⌚ 45 daqqa

## Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurs 4-sinf Tabiiy fan (science) darsligining 1-bo'lim 18-21-sahifalaridagi nazariy ma'lumotlar asosida tayyorlangan.

## Muhim va asosiy nazariy qism

🌿 O'simliklar – tirik organizmlar bo'lib, ular havoni kislorod bilan boyitadi, tuproqni mustahkamlaydi va oziq-ovqat manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'simliklar va ularning atrof-muhit bilan bog'liqligi

O'simliklar havoni tozalaydi – ular fotosintez jarayonida karbonat angidridni yutib, kislorod ishlab chiqaradi.

Tuproqni mustahkamlaydi – daraxtlarning ildizlari tuproqni ushlab turadi va uni yemirilishdan saqlaydi.

Hayvonlar uchun ozuqa manbai – o'simliklar hayvonlar va odamlar uchun asosiy ozuqa manbai hisoblanadi.

Iqlimni tartibga soladi – o'rmonlar havo haroratini me'yorda saqlaydi va namlikni tartibga soladi.

## O'simliklarning turli muhitlarga moslashuvi

♣ Cho'l o'simliklari – Kaktus singari o'simliklar suvni saqlash uchun qalin po'st bilan qoplangan.

🕒 Tekislik va dasht o'simliklari – bug'doy, o'tlar keng maydonda o'sadi.

🌲 O'rmon o'simliklari – daraxtlar havo namligidan foydalanib o'sadi.

💧 Suv o'simliklari – nilufar kabi o'simliklar suv yuzasida yashaydi.

## O'simliklarni qanday asrash mumkin?

🌿 Daraxt ekish va ularni kesmaslik.

🔄 Suvni tejash va ifloslantirmaslik.

👤 Chiqindilarni axlat qutisiga tashlash.

🚫 Hayvonlarning yashash joylarini buzmaslik.

$$E=mc^2$$



## STEM fanlar bilan integratsiyasi

- Tabiiy fanlar – O'simliklarning o'sish jarayoni va ekologik ahamiyati.
- Matematika – O'simliklarning o'sish tezligini hisoblash va o'rmon maydonlarini o'lchash.
- Texnologiya – O'simliklarni parvarish qilish va issiqxona texnologiyalari.
- Informatika – Atrof-muhit o'zgarishlarini kuzatish uchun raqamli xaritalar bilan ishlash.

### Qiziqarli fakt

1 ta katta daraxt 1 soatda 4 kishiga yetarli **kislorod** ishlab chiqaradi! 🌳  
O'simliklar havo ichidagi zararli gazlarni yutib, har kuni taxminan **120 kg** kislorod ishlab chiqaradi. Bu esa **bir oilaning bir kunda nafas olishi** uchun yetarli!